



## INTERYER DIZAYN TERMINLARIDA DISKURSIV YONDASHUV

**Xolmurotova Gulnora Sattorovna,**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15243847>

**Annotatsiya:** Maqolada interyer dizayn terminlarining diskursiv xususiyatlari lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Ushbu terminlarning lug‘aviy-semantik, kommunikativ va aksiologik jihatlari o‘rganilib, ularning madaniy va ijtimoiy omillar bilan bog‘liqligi yoritiladi. Interyer dizayn terminlari nafaqat texnik atamalar tizimi, balki estetik va qadriyaviy yuklamaga ega bo‘lgan diskursiv birliklar sifatida ham ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** interyer dizayn, terminologiya, diskursiv yondashuv, aksiologik xususiyatlar, kommunikativ funktsiya, estetik kategoriya, semantik tahlil.

Ilm, fan va texnika taraqqiyoti hozirgi kunda jadallik bilan rivojlanib borar ekan, jamiiki insonlarni turli sohalardan xabardor bo‘lishga undabgina qolmay, tilshunoslikning leksik qatlamini boyitadi, shuningdek, nutqda qo‘llanilayotgan qator lisoniy birliklarni jamlab, tobora kengaytiradi hamda kundalik hayotga hamohang bo‘lishini talab etadi. Bu jarayonda interyer dizayni sohasi ham istisno emas.

Tilshunoslikning eng dolzarb, murakkab, nazariy va amaliy ahamiyatga ega yo‘nalishlaridan bo‘lgan terminologiyaning rivojlanishi va shakllanishi, albatta, o‘ziga xos qonuniyatlar asosida yuzaga keladi, umumxalq tilining leksikasi negizida rivojlanadi hamda uning boyishi uchun xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, interyer dizayni faqatgina amaliy san‘at turi emas, balki madaniy, estetik va lingvistik jihatlarni o‘zida mujassam etgan diskursiv faoliyat sohasi hamdir. Mazkur sohadagi termin va atamalar ham aynan shu tarzda shakllanib, aniq tushunchalarni ifodalash bilangina chegaralanmay, balki dizayner va mijoz o‘rtasidagi samarali kommunikativ munosabatlarni belgilash vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

P. Nishonovning ta’kidlashicha, «termin – tuzilishiga ko‘ra so‘z yoki so‘z birikmasi bo‘lib, semantikasi jihatidan maxsus soha doirasi bilan chegaralangan va shu sohaga oid tushunchani ifodalovchi leksik birlikdir» [3:29]. Shu sababli, interyer dizayni terminlarining diskursiv jihatlarni o‘rganish, ayniqsa, bugungi kunning fan va texnika taraqqiyoti sharoitida ilmiy nuqtayi nazardan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Terminshunoslik tarixiga nazar solsak, ko‘pincha uning asosiy o‘rganish obyekti sifatida aynan termin qabul qilinishini ko‘ramiz [1]. Biroq termin tushunchasining talqini terminshunoslik fanining rivojlanishi davomida tobora chuqurlashib va



kengayib bordi. Bu jarayonni V.M. Leychikning ilmiy faoliyati misolida beshta asosiy bosqich sifatida ko‘rsatish mumkin:

- 1) termin tabiatini tadqiq qilish bosqichi;
- 2) terminning funksional jihatlarini tahlil qilish bosqichi;
- 3) termini tizimli ilmiy obyekt sifatida o‘rganish bosqichi;
- 4) termini bilish [idrok etish] birligi sifatida ko‘rib chiqish bosqichi;
- 5) termin tadqiqotining diskursiv jihatlarini o‘rganish bosqichi [2:57].

Diskurs nazariyasiga ko‘ra, terminlarning mazmuni faqat lug‘aviy-semantik jihatdan emas, balki ular qo‘llaniladigan kontekst, madaniy va ijtimoiy omillar orqali ham shakllanadi. Bu terminlarni diskursiv yondashuv asosida tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Bunda terminlarning estetik, funksional va aksiologik jihatlariga alohida e‘tibor qaratilishi muhimdir. Diskurs nazariyasiga ko‘ra, terminlarning mazmuni faqat lug‘aviy-semantik jihatdan emas, balki ular qo‘llaniladigan kontekst hamda madaniy va ijtimoiy omillar ta‘sirida shakllanadi. Bu esa terminlarni diskursiv yondashuv asosida tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. «Diskurs» tushunchasi lingvistika, semiotika, falsafa va madaniyatshunoslik kabi sohalarda turlicha mazmuniy jihatlar bilan qo‘llanilib, dastlab tilshunoslikda muayyan mezonlar asosida ajratilgan nutqiy birliklarni ifodalash uchun ishlatilgan. Semiotik jihatdan esa diskurs «chuqur semantik darajada yaxlit tizimli tarmoq shaklida namoyon bo‘ladigan til parchasi» [4:284] sifatida ta‘riflanadi. Shuning uchun terminlarning estetik, funksional va aksiologik jihatlariga alohida e‘tibor qaratilishi muhim hisoblanadi.

Interyer dizayn sohasidagi terminlar zamonaviy diskurs tadqiqotlarida alohida o‘rin tutadi. Ular nafaqat interyer dizayn mutaxassislari tomonidan ishlatiladigan kasbiy birliklar, balki madaniyat, psixologiya, estetika va lingvistika sohalari bilan ham uzviy bog‘liq bo‘lgan diskursiv hodisalardir. Interyer dizayn terminlarining diskursiv xususiyatlari bir nechta asosiy jihatlar orqali aniqlanadi:

**Birinchi**dan, interyer dizayn terminlari interdiskursivlik xarakteriga ega. Bu terminlar nafaqat dizaynerlarning kasbiy nutqida, balki reklama, ommaviy axborot vositalari va kundalik muloqotda ham faol qo‘llaniladi. Masalan, “*minimalizm*”, “*klassika*”, “*modern*”, “*loft*”, “*retro*”, “*barokko*”, “*xay-tek*”, “*vintaj*” kabi terminlar turli diskurslarda farqli ma‘nolar va konnotativ jihatlariga ega bo‘ladi.

**Ikkinchi**dan, bu terminlar o‘z ichida estetik-aksiologik komponentlarni tashiydi. Interyer dizayni terminlari nafaqat obyektiv uslub yoki yo‘nalishni ifodalabgina qolmay, balki ma‘lum bir qiymatlarni, estetik bahoni ham aks ettiradi. Misol uchun, “*skandinav uslubi*”, “*rustik*”, “*industrial*”, “*minimalist*”, “*eklektik*”, “*klassik*”,




“ekologik” kabi terminlarning ishlatilishi amaliylik, qulaylik, hashamat, sodda estetik yoki ekologik kabi aksiologik qadriyatlarni aks ettiradi.

**Uchinchi**, interyer dizayn terminlarining diskursiv tabiatida madaniy identifikatsiya va ijtimoiy mavqe belgilarining ifodalanishi ham kuzatiladi. “Art-deko”, “provans”, “xitoy uslubi”, “yapon minimalizmi”, “marokash”, “o‘rta asr modernizmi”, “ispan colonial”, “britan klassikasi” kabi terminlar orqali muayyan madaniy qadriyatlar va ijtimoiy guruhlariga xos bo‘lgan identifikatsiya belgilanadi. Shunday qilib, interyer dizayn terminlari diskursiv birlik sifatida o‘ziga xos murakkab struktura va funksiyalarga ega bo‘lib, ularning mazmuni va qo‘llanilishi keng ko‘lamli ilmiy tahlilni talab etadi. Interyer dizayn terminlarining kommunikativ va aksiologik yuklamalari o‘zaro chambarchas bog‘langan bo‘lib, ularning muloqot jarayonidagi ahamiyatini yanada oshiradi. Kommunikativ yuklama terminlarning matnda va nutqda ishlatilishi, axborot uzatish funksiyasi orqali namoyon bo‘ladi. Aksiologik yuklama esa ularning qadriyatlarga bog‘liq estetik bahosini, foydalanuvchi yoki iste‘molchilarning estetik qarashlarini aks ettiradi.

Kommunikativ jihatdan terminlar aniq va ravshan ma‘no ifodalab, mutaxassislar va mijozlar o‘rtasidagi tushunishni yengillashtiradi. Masalan, “minimalizm”, “industrial”, “provans” kabi terminlar ma‘lum dizayn yo‘nalishlarini ifodalab, muloqot jarayonida aniqlikni ta‘minlaydi.

Aksiologik jihatdan esa terminlar faqatgina uslub yoki texnik tavsif bilan chegaralanmaydi, balki muayyan qadriyat va madaniy-estetik qarashlarni ham ifodalaydi. Masalan, “klassik” yoki “barokko” terminlari ko‘pincha hashamat, boylik va sifat tushunchalarini anglatib, qadriyatlarni aks ettiradi. “Skandinav” yoki “ekologik” uslub esa amaliylik, ekologik muvozanat va minimalist estetikani ifodalab, muayyan aksiologik yuklamaga ega bo‘ladi.

Interyer dizayn terminlarining **kommunikativ** va **aksiologik yuklamalari** quyidagi chizmada yanada ravshan ko‘rsatilgan:





Yuqoridagi chizma terminlarning har ikki yuklama turidagi o‘ziga xos funksiyalarini ochib beradi. Shunday qilib, interyer dizayn terminlari kommunikativ aniqlik bilan bir qatorda, aks ettiradigan qadriyat va madaniy-estetik qarashlari bilan ham muloqotni boyitadi.

Ushbu tadqiqot interyer dizayn terminlarining diskursiv xususiyatlarini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, ularning shakllanish jarayoni, leksik-semantik tuzilishi va kommunikativ hamda aksiologik funksiyalari chuqur tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, interyer dizayn terminlari faqat texnik tushunchalar tizimi bilan cheklanib qolmay, balki madaniy, estetik va ijtimoiy omillar bilan ham uzviy bog‘liq.

Interyer dizayn terminlarining interdiskursiv tabiati ularning kasbiy muhitdan tashqarida ham faol qo‘llanilishini ta‘minlaydi. Ushbu terminlar turli kommunikativ kontekstlarda o‘zgaruvchan semantik va aksiologik yuklamalarga ega bo‘lib, dizayn uslublari va estetik yo‘nalishlarning ma‘no doirasini kengaytiradi. “*Minimalizm*”, “*klassika*”, “*modern*”, “*loft*” kabi terminlarning qo‘llanilishi ularning lingvistik funksiyasidan tashqari, ma‘lum ijtimoiy va estetik qadriyatlarni ifodalashga xizmat qiladi.

Shuningdek, interyer dizayn terminlarining kommunikativ vazifasi mutaxassislar va iste‘molchilar o‘rtasida aniq tushunishni ta‘minlash bilan birga, turli madaniy paradigmalar kontekstida ma‘no va estetik baholashning o‘ziga xos modellari shakllanishiga xizmat qiladi. Bu esa mazkur terminlarni diskursiv yondashuv asosida o‘rganish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Tadqiqot natijalari interyer dizayn terminlarining leksik-semantik rivojlanish tendensiyalarini tushunishga va ularning madaniy-milliy xususiyatlarini aniqlashga asos yaratadi. Kelgusidagi izlanishlar terminlarning turli tillarda qanday tarzda moslashuvi, ularning tarjima va ma‘no transformatsiyasi jarayonlari hamda zamonaviy dizayn konsepsiyalaridagi roli kabi masalalarga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Алексеева, Л.М. Проблемы термина и терминообразования: учебное пособие по спецкурсу. – Пермь: Перм. гос. ун-т, 1998. – 120 с.
2. Лейчик, В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура: учеб. пособие. – 3-е изд. – М.: ЛКИ, 2007. – 256 с.
3. Нишонов П.П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг қиёсий-типологик тадқиқи: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Т., 2009.
4. Leech, D. Semantics. – Penguin, 1977. – P. 284.